

O'zbek olimining monografiyasi lordaniyada nashr etildi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi Komiljon Rahimov muallifligidagi tasavvuf tarixi bo'yicha 470 betdan iborat "Movarounnahr tasavvufi ildizlari (tarixi):ta'lilotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII - XI asrlar)" nomli darslik-monografiya lordaniya poytaxti Amman shahrida nufuzli "Xutut va zilol" nashriyot-matbaa tomonidan chop etildi.



Qadimiy Movarounnahr tasavvuf vujudga kelgan va keng ildiz otgan o'lkalardan hisoblanadi. Markaziy Osiyo tasavvufi tarixining XII asrgacha, ya'ni so'fiylik tariqatlari paydo bo'lguniga qadar kechgan davri tasavvuf rivojida muhim o'rinn tutib, uning keyingi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin hozirladi. So'fiy ajdodlarimiz o'zlarining tasavvufga bag'ishlangan fundamental asarlarida shu davrga qadar tarqoq holda ko'zga tashlangan ushbu ta'lilotni bir tizimga solishga erishishdi. IX asrda Hakim Termiziy tomonidan boshlab berilgan tasavvuf ta'lilotini tizimlashtirish X asr oxirlari - XI asr boshlarida Kalobodiy Buxoriy va Mustamliy Buxoriylar tomonidan nihoyasiga yetkazildi. Bu esa XII asrdan boshlab islom dunyosining turli o'lkalari, jumladan, qadimiy Movarounnahrda vujudga kela boshlagan so'fiylik tariqatlarining shakllanishi uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Kitobda Markaziy Osiyo tasavvufining so'fiylik tariqatlarigacha bo'lgan davri muhim xususiyatlari, asosiy

g'oyalari, yirik namoyandalari va Kalobodiy Buxoriy bitgan «At-Ta'arruf» va Mustamliy Buxoriy qalamiga mansub «Sharh at-Ta'arruf» asarlarining so'fiylik manbalari orasidagi o'rni, «Sharh at-Ta'arruf» asarining tasavvufga oid muhim asar sifatidagi ahamiyati hamda uning o'zidan keyingi tasavvuf manbalariga ta'siri tadqiq etilgan.

Muhim jihat shundaki, Iordaniyadagi Ahli Bayt universiteti bilan hamkorlikda tayyorlangan mazkur qo'llanmadan darslik sifatidan ham foydalaniladi.